



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Yuldasheva Yulduz Javliyevna

Qashqadaryo viloyat XTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası o'qituvchisi

OILA - BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA MUHIM MASKAN

Annotatsiya

Maqolada har bir yosh avlodni tarbiyalashda oilaning o'rni yoritilgan. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda oilaning vazifalari batafsil yoritilgan. Oilada farzand tarbiyasida ota-onalar tomonidan amal qilinishi kerak bo'lgan shartlar bayon etilgan.

Kalitso'zlar: Oila, sog'lom turmush tarsi, farzandlar, namuna, o'rnak, muloqot, madaniyat, urf-odatlar, sog'lom hayot tarzi.

Markaziy Osiyo xalqlari o'zining o'tmish tarixi bilan, o'ziga xos turmush tarzi bilan taniqlidir. Turli millatga mansub bo'lgan xalqlarning turmush tarzi ularning madaniyati bilan, ko'p qirrali hayot faoliyati bilan xarakterlidir. Hayot faoliyatining muhim qismi, sog'lom turmush tarzini an'analari va o'ziga xos milliy xususiyatlari bilan bog'liqdir.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni sog'ligini himoya qilish va ularni sog'lom turmush tarziga o'rgatishga bolalar bog'chasida "Bolajon" dasturini bajarish orhali erishiladi. Afsuski, yuqorida qayd qilingan ish formalari va targ'ibot vositalari sog'lom turmush tarzini turligicha joriy qilishda, ayniqsa, bolalarga sog'lom turmush tarzini o'rgatish sohasida yetarli deb bo'lmaydi.

Ko'pchilik ilmiy tadqiqotlarning isbotlashicha bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish aniq tashkiliy struktura orqali amalga oshiriladi. Buni taxminan quyidagicha keltirish mumkin:

Birinchi – bolalar sog'ligini himoya qilish va ularga sog'lom turmush tarzini o'rgatishda o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar olib boradigan ishlar.



Ikkinchidan – gigienik tarbiyani amalga oshiruvchilar oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab, maktabdan tashqari idoralar.

Uchinchidan – shu sohadagi kadrlarni tayyorlab beruvchi idoralar.

To‘rtinchidan – sog‘lom turmush tarzini amaliyotda boshqarib turish. Shu keltirilgan tashkiliy tuzilma bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan sog‘lom turmush tarzini joriy qilishning amaliy natijalarini ko‘rish mumkin.

To‘rtala tizimda ham keltirilgan idoralar, tashkilotlar faoliyati boshqarish shakliga bo‘ysunadi. Ammo bu sistemadagi “oilalarning” bolalarni tarbiyalashdagi funksiyasi katta bo‘lishiga qaramay shu idoralar va tashkilotlar bilan uning bog‘liqligi, tarbiya sohasidagi funksiyani bajarishi boshqaruvga va ma‘lum o‘lchov mezoniga ega emas. Aholining katta yoshli kishilar ba‘zilari bolalarni sog‘lom o‘stirish, gigienik tarbiyalash qoidalari va yo‘l-yo‘riqlari haqida yetarlicha bilimga va tasavvurga ega emas. Bu esa oilaning bolalar sog‘liqini himoya qilishdagi faoliyatini aks ettiradi. Hamma oilalarda oila a‘zolarining sog‘lom turmush tarziga munosabati, birinchidan bolalarni sog‘liqini himoya qilish bilan ifodalansa, ikkinchidan hamma oila a‘zolarining jumladan bolalarning salomatligi yaxshi bo‘lishi orhali turmush tarzini barcha qirralari ya‘ni ma‘naviy va sotsial qiymatning yaxshiligi bilan ifodalanadi. Bolalarni sog‘liqini himoya qilishda oila asosiy g‘amxo‘rlik qiluvchi bo‘lsada, uning bolalar tarbiyasiga daxldor bo‘lgan barcha idoralar bilan hamkorligi yaxshi yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki yuqorida aytganimizdek, hamma oila a‘zolari sog‘lom turmush tarzini tashkil qilishda yetarli tushunchaga ega emas.

Bizning tushunchamizda oilada sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash uchun quyidagilar zarur bo‘ladi. Bular yetarli moddiy turmush sharoiti ya‘ni har bir oila a‘zosi uchun normadagi joy xajmi kvartira m^2 , ijtimoiy turmush shart-sharoitlari ya‘ni suv isitish sistemasi, yetarli xo‘jalik jihozlari, bolalar uchun ovqatlanish va dam olish xonalari, oila a‘zolarining ishlab chiqishdagi ishtirok etish darajasi, yetarlicha bo‘sh vaqt va hako‘zolar. Ana shu moddiy ijtimoiy turmush shart-sharoitlari mavjud bo‘lganda bundan to‘g‘ri foydalanish sog‘lom turmush tarzi uchun har bir oila a‘zosining bilim saviyasi va malakasiga bog‘liq.

O‘zbekistonda turmush sharoitining milliy xususiyatlarining bir ko‘rinishi, ko‘pchilik oilalarda yuqorida keltirilgan imkoniyatlarni yo‘qligi va qishloqlarda, ba‘zi joylarda shaharlarda ham davlat idoralari tomonidan turmush tarzini yaxshilashni zarur shart-sharoitlarini yaratilmaganidir.

Sog‘lom hayot tarzi – inson hayot tarzining tarkibiy qismi, u umuminsoniy tarbiyada, shaxsni uyg‘un rivojlanishida, har tomonlama kamol topishda muhim rol o‘ynaydi. Shunday ekan, sog‘lom bo‘lish san‘ati salomatlikni ta‘minlaydigan, amalga oshiradigan butun bir sharoitlar majmuasi hisoblanadi. Ya‘ni bu sharoitlar – mehnat va dam oilshni to‘g‘ri navbatlashtirish, sog‘lom turmush, to‘g‘ri ovqatlanish qoidalariga amal qilish, jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishdan iboratdir. Hayotning barcha sohalariga jismoniy tarbiya va mehnat tarbiyasining gigienik asoslarini keng miqyosida qo‘llamay turib, shaxsni har tomonlama shakllantirib bo‘lmaydi.

Sog‘lom turmush tarzining asosiy bo‘lgan dam olishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish, ovqatlanish qoidalariga rioya qilish va gigienik sharoitni yaxshilash haqida yoshlarga maktabdan boshlab ma‘lumot berish, bu sohada ularda yetarli tasavvurlarni hosil qilish davlat tomonidan tuzilgan rejalarda ko‘zda tutilgan.



Katta yoshli kishilar uchun mamlakatimizdagi chihariladigan turli gazeta va jurnallarda doimiy ravishda ma'lumot berilib boradi. Bundan tashhari har yili bir necha minglab ilmiy ommabop kitoblarda, bilim jamiyatining sog'liqni himoya qilish seriyasida chihariladigan oylik jurnallarida va har kungi gazetalar sahifasida bu haqida ko'p foydali fikrlar yoritiladi. Bu qo'llanmalarda turli yoshdagi kishilarni sog'liqini himoya qilish va mustahkamlash sohasida fikr yuritiladi, qimmatli maslahatlar berib boriladi. "Saodat" va "Sixat salomatlik" jurnallarida sog'lom turmush tarzining asosi bo'lgan to'g'ri dam olish, ovqatlanish va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishning yo'llari haqida takliflar berib boriladi. Shunga qaramasdan ko'pchilik aholi sog'lom turmush tarziga rioya qilishga, uni yoshlarga o'rgatishda, ayniqsa oila odat tusiga aylantirishga e'tiborsizlik bilan qaraydilar.

Ayniqsa respublikamizning qishloq aholisida, ba'zi hollarda shaharlarda ham sog'lom turmush tarziga o'rgatishning eng oddiy yo'llariga e'tiborsizlik bilan qarashni uchratish mumkin. Bu ishda xotin-qizlarning faol bo'lishi, ayniqsa maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ularni bu sohadagi tushunchasi juda muhimdir. Ko'pchilik onalarda bolani yoshlikdan chiniqtirish, to'g'ri ovqatlantirish, kun rejimiga rioya qildirish malakalari etarli emas. Masalan: maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni haftada 2-3 marotaba yuvintirish, kiyimlarini almashtirish, ovqat eyishdan oldin qo'llarni sovunlab yuvish, oyoq va qo'llarini doimo toza tutish, o'tirganda, yotganda gavgdani to'g'ri tutish kabi talablarga rioya qilmaslik, yana shuningdek uxlash vaqti va turish vaqtini ma'lum soatga asoslab rejimga o'rgatish, ovqatlanish normalariga, ovqat tarkibiga, turlariga e'tibor qilmaslik sog'lom turmush tarzini joriy qilishga salbiy ta'sir qiladi. Bu sohadagi kamchiliklarni tugatish kelajakni, jamiyatni sog'ligini ta'minlash demakdir.

Yuqorida aytilgan to'g'ri ovqatlanish, dam olish, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishlar har biri o'ziga xos qoidalarga rioya qilishni talab qiladi. Oilani bularni hayotga tadbiiq qilishdagi roli juda muhim.

Yuqorida bolalarni sog'lom turmush tarziga o'rgatishda onalarning vazifasi haqida misol keltirildi, bu masalada oilaning barcha a'zolarining ishtirok etishi ahamiyatlidir. Ayniqsa, oilada otalar bu sohadagi o'zining shaxsiy ibratii bilan yoshlarga o'rnak bo'lishi kerak: ba'zi hollarda otalar sog'liqni himoya qilish uchun va har tomonlama mustahkam rivojlanishi uchun o'z tajriba va bilimiga suyanib maslahat bersa, boshqa bir hollarda bolalarga bu haqidagi maqollar, qiziqarli sahifalarni o'qib berish, rivoyatlar, xikmatli so'zlarni misol keltirishlar mumkin. Bolalarni jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishga, jismoniy mehnat qilishga, hamkorlikda sayr va o'yinlar qilishda otalarning tashabbusini ahamiyati kattadir. Lekin kuzatishlar va ilmiy axborotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarni ko'pchiligi zararli odatlarni ya'ni chekish, ichish, normada ortiqcha uxlashni va boshqalarni otalaridan yoki onalaridan o'rganishadi.

Sog'lom turmush tarzi uchun zid bo'lgan shu kabi odat va ko'nikmalarni yo'qotish uchun ota-onalar bilan ko'pchilik jamoat tashkilotlari ish olib borishi maqsadga muvofiqdir. Bulardan maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumta'lim maktablarida, bolalar va o'smirlar maktablarida ibratli oilalar vakillaridan tashkil topgan ota-onalar kengashlarida bir qancha foydali ishlarni amalga oshirish mumkin. Shu kabi bolalarni sog'lom qilib tarbiyalash uchun oila bilan turar joylarda, mahallalarda tuzilgan kengashlar, turar joylardagi uchastka xamshira va vrachlari, bolalar klinikasi vakillari, bolalar va o'smirlar bo'yicha ishlovchi ichki ishlar inspektorlari, maktablarning jamoat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari ota-onalar o'rtasida maktab yoshdagi va maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar



bilan tarbiyaviy ishlar yo‘lga qo‘ygandagina sog‘lom turmush tarziga rioya qilishda muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Har bir mamlakatning o‘z urf-odatlarini, an‘analari, udumlari bor va ular o‘sha millat uchun bebaho qadriyatlar hisoblanadi. Bu mo‘tabar tushunchalarning paydo bo‘lishi kishilik jamiyatining shakllanish jarayonlari bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Demak, qadriyat bilan aloqadar bo‘lgan mazkur milliy tushunchalar juda qadim-qadimdan ildiz otib, qalb qo‘rimiz, shuurimizga singib, milliy axloq – odobimiz, tarbiyamizda o‘zga xalqlar, millatlarga o‘rnak bo‘lsa arzigulik odobnoma bo‘lib kelgan.

Farzandlarning ota-onaga hurmati Sharqda hamma vaqt juda yuqori bo‘lgan. Ularning o‘zaro munosabatlari biz yuqorida ta’kidlaganimiz – milliy qadriyatlarimizning yuksak namunasidir. Farzandlar yoshligidanoq otasiga suyanib, onasining allasini tinglab, ularning mehri qonib voyaga etganlar. Ular ko‘ngliga mehr ona suti bilan kirgan, hazrat Navoiy aytganlaridek, onani oy, otani quyosh deb bilganlar. Ota-onaga bo‘lgan bunday izzat-hurmat oilada shakllangan.

Oilaga bunday jiddiy e’tibor berilishi bejiz emas. Oila va jamiyat o‘zaro bog‘langan, Oila-jamiyatning tarkibiy qismi. Jamiyatning barcha yutuq, kamchiliklari, ziddiyatlarini ko‘ruvchi muqaddas makon. U inson zotini, uning avlodini davom ettirish manbai. Ota-ona, oila bolalarni tarbiyalash va ularni jismonan hamda aqlan kamolotga erishuvi uchun mas’uldirlar.

Bizning demokratik huquqiy davlatimizning ravnaqi oila farovonligi bilan bog‘liq. Binobarin, oila – bizning xalqimiz uchun millatning ko‘p asrlik an‘analari va ruhiyatiga mos bo‘lgan g‘oyat muhim hayotiy qadriyatlaridan biridir.

Oila shaxsiy va ijtimoiylik birligidan iborat. Uning shaxsiyligi, nisbiy mustaqilligi har bir oilaning o‘z maqomi borligi bilan xarakterlanadi. O‘z taqdirini o‘zi belgilaydi, unga biron tashqaridan zo‘rlilik bilan aralasha olmaydi. Shu ma’noda, oila ijtimoiy hodisa bo‘lib, unga ijtimoiy institut, ijtimoiy guruh deb qarash mumkin. Uning manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan mos tushadi. Oila ijtimoiy foydali funksiyalarni bajaradi, o‘z a’zolarining jismoniy va axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qiladi.

Ota-ona, farzandlar orasidagi aloqalar oilaviy munosabatlarning muhim tarkibiy qismidir. Chunki, farzandlar bo‘lgandagina oila to‘la sotsial va shaxsiy ma’no kasb etadi. Ota-ona va farzandlar orasidagi munosabatlarning axloqiy va pedagogik jihatlari orasida farq borligini ta’kidlash kerak. Birinchi jihati: ota-ona va farzandlar orasidagi muomala, ikkinchi jihati – ota-onaning bolani tarbiyalashdagi tamoyillari, uslub va vositalari majmuasi.

Birinchisini etika, ikkinchisini pedagogika fanlari o‘rganadi. Istiqloq sharofati bilan oilaviy munosabatlarda yuz bergan muayyan o‘zgarishlarni kuzatish mumkin. Bu o‘zgarishlarining zamini jamiyat va oilaning iqtisodiy asosi tubdan o‘zgarganligi, ijtimoiy mulk o‘rnini xususiy mulk egallay boshlanganligi bilan bog‘liq. Bu o‘rinda mulkka egalik hissiyatining tiklanganligini ta’kidlab o‘tish kerak.

Oila a’zolari va farzandlari oila mulkini ko‘paytirishdan, oilaning boy va farovon bo‘lishidan manfaatdor bo‘lib qoladi. Ilgari mulk ijtimoiy bo‘lgan davrlarda farzandlar ko‘proq ota-onaga qaram edilar. Ularning fuqarolik yetukligi ham cho‘zilib, uzoq davom etardi. Hozirgi yoshlar biznes va fermerlik bilan shug‘ullanishdan, o‘z iqtisodiy bilimini oshirishdan manfaatdor bo‘lmoqdalar. Bu holat oilaning iqtisodiy quvvatini mustahkamlashga imkon berayotir. Oilada qizlarning tarbiyasiga alohida e’tibor berish



imkoniyati vujudga kelayotir. Nafaqa, ijtimoiy yordam, tibbiy sharoitning yaxshilanishini, onalar haqida hamxo'rlik, ularning bo'sh vaqtlarini ko'payishi, iqtisodiy ahvolning yaxshilanishi farzandlar tarbiyasiga ko'proq e'tibor berishga imkoniyat yaratmoqda.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga ota-onaning o'z farzandlar oldidagi burchi aniq qilib yozilgan. Ota-onalar o'z farzandlarini ular voyaga yetgunga qadar boqishlari va tarbiyalashlari kerak. Balog'atga yetgan va mehnat faoliyatini yo'qotmagan bolalar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar kabi moddalar shular jumlasidandir.

Ota-onalarning farzand oldidagi burch haqida Sharqona tarbiyaning yozilmagan qonunlari ishlab chiqilgan. Bunga ko'ra, ota-ona farzand tarbiyasi bobida kechikmasligi, chaqaloq tug'ilgan vaqtdan boshlab uning tarbiyasi bilan shug'ullanish kerak, ota-bobolarimiz aytishicha, bola tarbiyasi yo'rgakdanoq boshlanishi lozim. Ona allasi ham chaqaloqni go'dakligidanoq ohang nafisligiga, ona mehriga o'rgatadi. Binobarin, tarbiya onalar allasidan boshlanadi.

Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda oila a'zolari o'rtasida mehr-oqibatni saqlab qolish juda muhim ahamiyatga ega. Bunda, albatta oilaning ma'naviy va huquqiy asoslari mustahkam bo'lishini, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash chora-tadbirlarini ko'rish kerak, deb hisoblaymiz.

Barkamol avlodni tarbiyalash avvalo oiladan boshlanadi. Har tomonlama kamolga etgan ma'nan boy, axloqan pok va jismonan sog'lom bolalarni tarbiyalashdek qiyin va murakkab vazifa ilk bor oilada shakllantiriladi. Bola aziz bo'lganidek, uning tarbiya odobi, xulq - atvori zamonamizga mos barkamol yetuk kishi bo'lib yetishishi uchun hamma vaqt muhim dolzarb masala bo'lib qolgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qolaveradi.

Zero, oilada sog'lom turmush tarzini yaxshi tashkil etilishi, ya'ni uning tarkibiy qismi hisoblangan mehnat, dam olish, to'g'ri va oqilona ovqatlanish, o'quv mashg'ulotlari, o'yinlar, sayr qilish, madaniy hordiq chiqarish kabilar oilada ichki tartib – intizomi vujudga keltiradi. Shuning uchun har qanday vaziyatda va sharoitlarda ham oilada yaxshi munosabatlarni saqlashga harakat qilish lozim. Chunki oilada sog'lom muhit bo'lmas ekan, bola tarbiyasida er-xotin o'rtasidagi munosabatlarda, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida hamjihatlik va totuvlik bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida oilada har xil ko'ngilsiz voqea-hodisalarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi hamda sog'lom turmush tarziga putur etadi. Oilada sog'lom muhit va o'zaro yaxshi munosabatlar mavjud bo'lsa – sog'lom turmush tarzi barqaror bo'ladi.

Bola oila hayotida faol bevosita ishtirok etadi, shuning uchun bola tarbiyasi haqida gap ketganda avvalo, bu borada ota-onaning bola oldidagi obro'si, namunasi oiladagi urf-odatlar, rasm-rusumlar an'analar naqadar katta ahamiyatga egadir. Farzand umr chirog'i bo'lishi bilan birga kelajak orzu-umidimiz, suyangan tog'imiz keksalik va qarigan chog'imizda kuch-quvvatimiz va madadkorimiz bo'lishini istaymiz.

O'zbek milliy urf-odatlarimizga ko'ra ko'pincha bolalarning tabiatiga baho berilganda uning ota-onasi bobo buvilaridagi mavjud bo'lgan xislatlariga nisbatan baholanadi. Xalqimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi" yoki "Ha, umridan baraka topsin ota-onasiga tortibdi",- deb bekorga aytmaydi. Har bir ota-ona bolalariga halollik, rostgo'ylik, kamtarlik, himmatlilik, samimiylik, xushmuomalalik, shirinsuxanlik, sharm hayo, burch, insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, chidamlilik, adolatparvarlik kabi yaxshi ijobiy xislatlarni bolaligidan boshlab singdirishi lozim. Shunda u ulg'aygan sayin oriyatli, nomusli, xushmuomilali, samimiy odobli, hamfikir, do'st, bemorlarga xamdard va yuqorida



keltirilgan yaxshi ijobiy xislatlar va go‘zal sifatlarning shakllanishida hamda barkamol insonning ahloqiy poklikka erishishida katta yordam bergan bo‘ladi. Buning uchun ota-ona farzandini ezgu-maqсадga intiluvchan, kattalarni e‘zozlaydigan, hurmatlaydigan, kichiklarga muruvvatli, saxovatli, izzat qiladigan, o‘qish, ishda matonatli, qat‘iyatlik, irodali, tashabbuskor, uyushqoq, sabr-toqatli qiyinchiliklardan qo‘rqmaydigan insonlar qilib tarbiyalashi kerak.

Binobarin bola tarbiyani oila muhitida olar ekan, avvalo ota-onaning o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi kerak va yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda sog‘lom ma‘naviy madaniy ijtimoiy muhitni yaratishlari shart:

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, bola tarbiyasi oila, maktab, mahalla, jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borilmas ekan, tarbiyada ko‘zlangan orzu-maqсадlarga erishish qiyin bo‘ladi. Oilada maqsadga muvofiq tarbiya olgan bola maktabda barkamollashadi, ta‘lim olib o‘z ma‘naviyati va madaniyatini yuksaltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. B.Ziyomhammadov. Pedagogika.-T.:“Turon-Iqbol”. 2006.-112 b.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, TDPU, 2003.
3. Pedagogika. /prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida.- T.: ”O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010,- 400 b.
4. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O‘qituvchi. 2010 y.254-263b
5. Xasanboyeva O. va boshq. Pedagogika tarixi.-T.: “G'.G'ulom, 2004.
6. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: 2005.
7. www.edu.uz
8. www.ziyonet.uz.